Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyani integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	




BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING VERBAL-KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Nematova Gulsanam Abdullayevna

Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



<https://orcid.org/0009-0006-5470-9199>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak fransuz tili o'qituvchilarining verbal-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot globallashuv sharoitida xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida verbal muloqotning o'rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Verbal muloqot shaxs ichidagi, shaxslararo, kichik guruh va jamoatchilik bilan muloqot toifalari asosida o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari integratsiyalashgan o'quv modullari asosida olib borildi hamda kognitiv, operativ va shaxsiy-ijodiy mezonlar orqali baholandi. Natijalar tajriba guruhi talabalari verbal-kasbiy kompetensiyasining sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi va tadqiqot gipotezasining samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: verbal muloqot, kasbiy kompetensiya, chet tili o'qituvchisi, verbal-kasbiy kompetensiya, integratsiyalashgan ta'lim, kognitiv mezon, shaxsiy-ijodiy rivojlanish, kommunikativ ko'nikma, pedagogik tajriba.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of developing verbal-professional competence in future teachers of French. The study aims to identify the role and significance of verbal communication in professional teacher training under conditions of globalization. Verbal communication is analyzed through four categories: intrapersonal, interpersonal, small-group, and public communication. The experimental research was conducted using integrated instructional modules and evaluated according to cognitive, operational, and personal-creative criteria. The findings demonstrate a significant improvement in the verbal-professional competence of students in the experimental group and confirm the effectiveness of the proposed methodology, thereby supporting the research hypothesis.

Key words: verbal communication, professional competence, foreign language teacher, verbal-professional competence, integrated education, cognitive criterion, personal-creative development, communicative skills, pedagogical experiment.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития вербально-профессиональной компетентности будущих учителей французского языка. Исследование направлено на определение роли вербальной коммуникации в профессиональной подготовке учителей иностранного языка в условиях глобализации. Вербальное общение анализируется по четырём категориям: внутриличностное, межличностное, групповое и публичное общение. Опытно-экспериментальная работа проводилась на основе интегрированных учебных модулей и оценивалась по когнитивным, операционным и личностно-креативным критериям. Полученные результаты свидетельствуют о значительном повышении уровня вербально-профессиональной компетентности студентов экспериментальной группы и подтверждают эффективность выдвинутой гипотезы.

Ключевые слова: вербальная коммуникация, профессиональная компетентность, учитель иностранного языка, вербально-профессиональная компетентность, интегрированное обучение, когнитивный критерий, личностно-творческое развитие, коммуникативные навыки, педагогический эксперимент.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jahon ta'lim tizimida yuqori axloqiy fazilatlarga ega, milliy va diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalangan, boshqa xalqlarning tili, madaniyati va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan, raqobatbardosh va mobil mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini, xususan, verbal-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish, o'quv jarayonini modellashtirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini loyihalashga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



Ushbu jarayonda verbal-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati va ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni xorijiy til orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, xorijiy til ko'nikma va malakalarini rivojlantirish darajasini diagnostika qilish, modulli ta'limni joriy etish hamda kasbiy kommunikativlikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1. Kompetentlik tushunchasining ilmiy talqinlari

Bugungi kunda O'zbekiston va xorijiy ta'lim hamjamiyatida "kompetentlik" tushunchasiga nisbatan yagona va bir ma'noli ta'rif mavjud emas. Mazkur holat ushbu tushunchaning turli ilmiy maktablar, nazariy yondashuvlar hamda tadqiqotchilarning metodologik pozitsiyalariga ko'ra turlicha talqin qilinishi bilan izohlanadi. Shu bois kompetentlik masalasi zamonaviy pedagogika fanida ochiq va muhokamaga boy ilmiy kategoriya sifatida qaralmoqda.

Kompetentlikka oid ta'riflarning xilma-xilligi uning murakkab va ko'p qirrali mohiyatini aks ettiradi. U nafaqat bilim va ko'nikmalar majmuini, balki shaxsning kasbiy faoliyatda ushbu bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "kompetentlik" tushunchasi bilan bir qatorda "kompetensiya" atamasi ham keng qo'llanilib, ular o'rtasidagi munosabat masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tushunchalar mazmunan yaqin bo'lsa-da, ular aynanlikni emas, balki o'zaro to'ldiruvchanlikni ifodalaydi.

V.A. Adolfning yondashuviga ko'ra, kompetentlik shaxsda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning umumiy yig'indisi sifatida talqin qilinsa, kompetensiya ushbu imkoniyatlardan amaliy faoliyat jarayonida foydalanish qobiliyatini anglatadi [Адольф В.А., 1998: 45]. Ushbu qarash kompetentlikni shaxsning integral va dinamik xususiyati sifatida tushunishga metodologik asos yaratadi.

B.T. Ashurovning fikricha, kompetentlik sifatlarini o'zida shakllantirgan mutaxassis o'z kasbining yetuk ustasi bo'lib, har qanday jabhada ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ilg'or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o'rganish orqali pedagogik kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib boradi [Ashurov A., 2020: 13].

K.D. Riskulova esa o'z ta'rifida "kompetensiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi, deya ta'riflaydi. Kompetentlik esa shaxsning integral xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida o'z ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezonlari esa samarali faoliyat va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi [K.D. Riskulova, 2017: 83-b.].

D.R. Pulatovanning fikricha, kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amaliy qo'llay olish layoqatini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim natijasidir. U bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, ta'limda innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi [D.R. Pulatova, 2022: 96–99-b.].

D.O. Ximmataliyevning ta'kidlashicha, kompetentli yondashuv ta'lim texnologiyasida muhim o'zgarishlarni talab qiladi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari oldida maxsus texnologiyalar va ularni ta'lim jarayonida amalga oshirish usullarini ishlab chiqish vazifasi turadi [D.O. Ximmataliyev, 2020: 51–76-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibida verbal muloqot asosiy, majburiy va istiqbolli komponent sifatida talqin qilinadi. Verbal muloqot xorijiy tillarni yetarli darajada egallash bilan bir qatorda, shaxsning ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, uni avlodlarga uzatish, shuningdek, samarali muloqot orqali faoliyatini rejalashtirish va boshqarish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Verbal muloqotning asosiy tarkibiy ko'nikmalari samarali nutq va faol tinglashdan iborat. Samarali nutq so'z tanlovi, talaffuz aniqligi va nutq mazmunining tinglovchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga yo'naltirilgan



kommunikativ strategiyalarni talab etadi. Xabar mazmuni va shaklining mosligi muloqot samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Faol tinglash esa verbal muloqotning ajralmas qismi bo'lib, muloqot jarayonida suhbatdoshni diqqat bilan eshitish, uning asosiy g'oyasini anglash va baholashdan tiyilish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, samarali muloqot tinglash madaniyatining rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir [Ne'matova, G.A., 2022: 7–8]. Tinglash ko'nikmasini rivojlantirish uchun ma'ruzachiga to'liq e'tibor qaratish, ochiq fikrni saqlash, chalg'ituvchi omillardan imkon qadar uzoq bo'lish tavsiya etiladi.

Shuningdek, samarali verbal muloqot pedagogik jarayonda talabani shaxsiy, kasbiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Bunda muloqotni asosiy g'oyadan boshlash, dalillarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish hamda talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos kommunikativ strategiyalarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida verbal muloqot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida to'rt toifa asosida tahlil qilindi.

1-jadval: Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida verbal muloqot toifalari

№	Verbal Muloqot toifalari	Verbal muloqot toifalari tasnifi
1	Shaxs ichidagi muloqot	Bu ovozli suhbat uchun yo'nalish. Siz o'zingiz bilan suhbatlashasiz va fikringizni bildirasiz. Agar siz o'zingiz bilan muloqot qilsangiz, ijodiy fikrlashda ishonch va ravshanlikka ega bo'lasiz. Bu qaror qabul qilishda, jumlar tuzishda, mos so'zlarni topishda va boshqalar bilan muloqot qilishning samarali usullarini topishda yordam beradi. Bu hamkasblaringizning ishonchini qozonishga yordam beradi.
2	Shaxslararo muloqot	Bu yakkama-yakka og'zaki muloqot sifatida ham tanilgan. Ushbu muloqot shakli ikki kishi o'rtasida sodir bo'ladi. Bu fikrni aniq bildirayotganda ko'rish imkonini beradi. Boshqa odamning reaksiyalari, sharhlari, verbal va nonverbal ko'rsatkichlarni tushunib yetayotganda yoki tushunmaslikni aniqlashga yordam beradi. Muloqot qilish uchun kimdir bilan gaplashish shart emas. Bu yaqin atrofda nima sodir bo'layotganidan xabardor bo'lish bilan bog'liq. Avval tinglash, keyin o'ylab ko'rish va keyin javob berish afzaldir.
3	Kichik guruh muloqoti	Kichik guruhlardagi muloqotda odamlar soni ko'payadi. Siz faqat bir kishi bilan gaplashishdan bir necha kishidan iborat guruhga aylanasiz. Jamoa yig'ilishlari, kengash yig'ilishlari va savdo yig'ilishlari kichik yig'ilishlarga misoldir. Guruh yetarlicha kichikki, hamma bir-biri bilan suhbatlasha oladi. Munozarani davom ettirish va hammaga gapirish uchun vaqt berish maqsadga muvofiqdir.
4	Jamoatchilik bilan aloqa	Bu uslub, shuningdek, "omma oldida nutq so'zlash" deb ham ataladi. Indivud bir vaqtning o'zida odamlarning katta guruhiga gapiradi. Ommaviy muloqot nutqlar, siyosiy kampaniyalar va taqdimotlarni o'z ichiga oladi.

Bunday muloqotda tinglovchilar soni ko'proq bo'lganligi sababli, ular bilan gaplashishdan oldin tushunarli atama va iboralardan foydalanish hamda fikrlarni tartibga solish imkonini beradi.

Samarali muloqot jarayonida verbal muloqot ko'nikmalarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Verbal muloqot ovoz balandligi, ovoz tezligi, ohang, til va grammatik tuzilma kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olib, xabarni tinglovchiga aniq va to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu komponentlar bo'lajak fransuz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Xususan, grammatikaning to'g'ri qo'llanishi ravon nutqni ta'minlasa, ovoz ritmi va ohang auditoriya e'tiborini jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak fransuz tili o'qituvchilari turli kommunikativ to'siqlarga duch kelishlari mumkin. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun ularning mohiyatini anglash va o'quv jarayonida amaliy tajribalar orqali yengib o'tish zarur. Shunday ekan, verbal muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Verbal muloqot dialogik jarayon sifatida nafaqat gapirish, balki tinglash va savol bera olish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Bizning fikrimizcha, verbal muloqotda faol ishtirok etish shaxsning milliy o'z-o'zini anglash darajasi, ijtimoiy jarayonlarning demokratlashuvi hamda kasbiy tayyorgarligi bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayon shaxsning etnik-madaniy kompetensiyasi va suhbatdoshga nisbatan bag'rikeng munosabati bilan belgilanadi.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining verbal muloqot ko'nikmalari va nutq odobini rivojlantirish so'z va lug'atni mavzuga mos tanlash, dialogik mashqlar orqali tayanch iboralarni qo'llash, shuningdek, autentik materiallar (filmlar, videodarslar) asosida til, urg'u va nonverbal belgilarni anglash orqali amalga oshiriladi. Til o'rganish va o'qitish jarayonida verbal muloqot va nutq odobi yetakchi o'rin tutib, mazkur metodik yondashuv tadqiqot metodologiyasi bilan bevosita bog'liqdir [Ximmataliyev, D.O., 2020: 122–124].




Samarali verbal muloqot faol tinglash, aniq va ravon nutq, mos til va ohangdan foydalanish, noverbal signallarni anglash hamda ishonch bilan fikr bildirish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Xabarni to'g'ri talqin qila oladigan va unga mos munosabat bildiradigan pedagoglar kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadilar. Shu bois nutq odobi qoidalariga rioya qilish muloqotni boshlash, davom ettirish va yakunlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak fransuz tili o'qituvchilarining verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida tajriba-sinovning aniqlash bosqichi asosiy rol o'ynadi. Ushbu bosqichda talabalarning verbal muloqotga bo'lgan yondashuvi, kasbiy tayyorgarlik darajasi va shaxsiy munosabati tahlil qilindi. Sinovning asosiy maqsadi pedagogik va og'zaki kasbiy bilimlarni rivojlantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishdan iborat edi.

Tajriba doirasida DTS talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan o'quv modullari qo'llanildi. Mazkur modullar: "Les études", "Les jeunes et le sport", "Pourquoi on étudie la langue étrangère?" va "L'homme et la langue" bo'lib, ular shaxslar, millatlar, madaniy odatlar, fransuz va o'zbek yoshlari hayoti, sog'lom turmush, fransuz tilini o'rganish motivatsiyalari, AKT vositalari hamda mutaxassislik mavzularini qamrab oladi. Modullar talabalarning verbal muloqot ko'nikmalarini amaliyotda sinovdan o'tkazish va ularni kasbiy kompetensiya shakllanishiga jalb etish imkonini berdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, verbal muloqot orqali kasbiy kompetensiyani takomillashtirish uchta mezon bo'yicha baholandi. Har bir mezon doirasida talabalarning verbal-kasbiy muloqot ko'nikmalari dastlabki va yakuniy bosqichlarda o'lgandi. Tajriba natijalari diagramma ko'rinishida taqdim etilib, verbal muloqot ko'nikmalarining tizimli rivojlanishi va kasbiy tayyorgarlik darajasining oshishi aniqlandi.



1-rasm: Samaradorlik ko'rsatkichi

Bo'lajak fransuz tili o'qituvchilari o'rtasida og'zaki-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha yakuniy tahlil ma'lumotlarining qiyosiy tahlili samarali ekanligini ko'rsatdi va tadqiqot gipotezasini tasdiqlash imkonini berdi. Muloqot vositasida bo'lajak fransuz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tajriba-sinov guruhida nazorat guruhiga qaraganda yuqoriroq darajada namoyon bo'ldi: ular o'ziga ishonchni, pedagogik, lingvistik va verbal muammolarni hal qilishda ijodiy, nostandart yondashuvni namoyish etdilar, zaruriy kasbiy va shaxsiy muhim fazilatlarini ko'rsatdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish integratsiyalashgan yondashuv orqali, "Xorijiy til" fan modullari yordamida amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda talabalarning verbal, noverbal va paraverbal kommunikatsiya vositalarini samarali qo'llash, shuningdek, texnologik va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Verbal-kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli mantiqiy tuzilma va ilmiy asoslangan yondashuvga ega bo'lib, u selektivlik, diqqat, samaradorlik va ijodiy sezgi mezonlari orqali talabani kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, og'zaki muloqot vositalaridan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyani oshirish mezonlari pedagogik salohiyat va ta'lim darajasiga mos bo'lishi, shuningdek, kognitiv, operatsion va shaxsiy-ijodiy komponentlarni qamrab olishi lozim. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish va amaliy faoliyatga samarali tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: автореф. дис. д-ра пед. наук. – М., 1998. – 48 с.
2. Ashurov, A. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, № 1(30), 76–83. <https://journal.fledu.uz>, ISSN: 2181-8215
3. Po'latova O.H. Kasbiy faoliyatida muloqotning roli. Sentral asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) issn:2181-2454 volume 2 | issue 1 | 2022. 192-b
4. Ximmataliyev, D.O. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi. Zamonaviy ta'lim / 2020, 7(92).
5. Ne'matova, G.A., Jurayev, T.A. Pedagogical conditions for the formation of socio-cultural competence of students. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 2022, №2.
6. Abdurashidovna, D. D., & Khudayberdiyevna, K. Z. (2022). Scientific and Methodological Foundations for Studying the Problem of Using Modern Pedagogical Technologies in Education. International Journal of Human Computing Studies, 4(4), 14-18.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.